

Sahroda



19:00 / 04.09.2022 2964

Fir'avn ta'qibidan sog'-salomat qutulgan Bani Isroil bexavotir yerga yetganlarida sharaflil ozod kishilardak yengil nafas oldilar. Bu yerda ularga na Fir'avn na Homon va na Fi'avn mirshablari xavf solardi. Endi qo'rqmasdan emin-erkin, xotirjam, Allohdan boshqa biror kishidan qo'rqmasdan yurishlari mumkin edi. Lekin, yam-yashil vodiya o'sgan Bani Isroil sahro quyoshidan ozor chekardi. Hozir Isroil farzandlari Allohning mehmoni edilar. Siz shohlarning o'z mehmonlariga qanday izzat-ikrom ko'rsatishni bilasizmi? Albatta, aziz mehmonlarni jazirama oftobdan ehtiyot qilib shohona chodirlar tikiladi...

Alloh izzat-ikromi esa har qanday mehmonnavozlikdan yuqori bo'ladi. Pok Parvardigor amri bilan Bani Isroilga bulut soyabon qilindi. Isroil farzandlarini quyosh tig'idan saqlovchi bu bulutlar ular bilan hamisha birga yurardi.

Musoning qavmi to'xtasa, bulut ham to'xtar, yursalar, u ham samoda suza boshlar edi.

Isroil bolalari chanqashdi. Sahroda na bir quduq va na bir ko'l ko'zga tashlanmasdi. Bani Isroil onasidan yordam kutgan go'dak misoli Musoga tashnalik azobidan shikoyat qildi. Muso alayhissalom Parvardigoriga iltijo etdi. Axir undan o'zga madadkor bormi?!

«Eslang (ey bani Isroil) Muso o'z qavmi uchun suv tilaganida, «Asoingni toshga urgil», dedik. Bas, undan o'n ikki chashma otilib chiqdi har bir qabilaga (ular o'n ikki urug' edilar) o'z suvi ma'lum bo'ldi».

Qorni ochgan Isroil farzandlari yana Muso alayhissalom oldiga yugurishdi:

- Sen bizni turli laziz mevalarga boy bo'lgan hushmanzara Misr yeridan olib chiqding. Endi, mana bu qup-quruq sahroda bizga kim biron yegulik beradi?! Muso yana Parvardigoriga duo-iltijolar qildi. Axir undan boshqa kimga ham iltijo qilinadi?! Alloh taolo ularga yeguliklar tushirdi. Holva kabi laziz shirinliklar daraxt barglariga quyilib tushirildi. Ularga qushlarni yubordi. Daraxtlar ustidagi qushlarni sira qiynalmasdan ushlar edilar. Mana shu Alloh tomonidan berilgan «shirinlik va bedanalar» edi. Mana shu - yaydoq sahroda Bani Isroilning Alloh tomonidan mehmon qilinishi edi.

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad